MIF ASOSIDA SHAKLLANGAN FRAZEMALAR

Xolmo‘minova Hulkar Abdurasul qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti magistranti.

https://doi.org/10.5281/zenodo.24446092

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek tilida mif asosida shakllangan frazemalarning kelib chiqishi va lingvokulturologik mohiyati tahlil qilinadi. Xalq og‘zaki ijodi, qadimiy e’tiqodlar va afsonaviy obrazlar frazeologik birliklar shakllanishida muhim ahamiyatga ega.*

Mifologik tasavvurlar asosida paydo bo‘lgan frazemalar milliy dunyoqarash, madaniy qadriyatlar va tarixiy xotirani o‘zida mujassam etgani maqolada ko‘rsatib berilgan hamda bunday frazemalarning obrazliligi, zamonaviy nutqda qo‘llanish xususiyatlari yoritilgan.

Maqola natijalari lingvokulturologiya va etnolingvistika sohalarida ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: *mif, frazema, obrazlilik, milliy dunyoqarash, lingvokulturologiya, etnolingvistika, semantika, xalq og‘zaki ijodi.*

PHRASEMES FORMED ON THE BASIS OF MYTHS

Abstract. *The article analyzes the origin and linguocultural essence of phraseological units formed on the basis of myths in the uzbek language. Oral folk literature, ancient beliefs and mythical characters play an important role in the formation of phraseological units originating from mythological beliefs embody national worldview, cultural values and historical memory. It also examines the figurativeness of such phraseological units and their patterns of use in modern speech. The findings of the article are of both theoretical and practical significance for the fields of linguoculturology and ethnolinguistics.*

Keywords: *myth, phraseological unit, figurativeness, national worldview, linguoculturology, ethnolinguistics, semantics, oral folk literature.*

XX asr gumanitar va ijtimoiy bilimning mifdek ahamiyatli tushunchasiga bo‘lgan kuchli qiziqish muhiti bilan sug‘orilgan. Mif qadimgi odamlarning borliq haqidagi ibtidoiy tasavvurlari yig‘indisi bo‘lib, olamning yaratilishi, inson, o‘simlik va hayvonot dunyosining paydo bo‘lishi, samoviy jismlarning yaratilishi, tabiiy hodisalarning sabablari va mohiyati, afsonaviy qahramonlar, ma’budlar va ilohlar to‘g‘risidagi e’tiqodiy qarashlarni o‘z ichiga olgan.

Hali o‘zini tabiatdan ajratib olmagan qadimgi odam o‘z atrofidagi moddiy borliqning paydo bo‘lish sabablarini mifologik tasavvurlar vositasida izohlashga, tushuntirishga harakat qilgan. Mifologik tasavvurlar muayyan voqelik mohiyatini xayoliy uydirma vositasida izohlasada, mif yaratilgan va ommalashgan joyida o‘z ijodkori va ijrochilari tomonidan haqiqatda bo‘lib o‘tgan voqealar bayoni sifatida qabul qilingan. Miflar og‘zaki hikoya qilishga, gapirib berishga, bayon etishga mo‘ljallanganligi uchun og‘zaki nasr namunalari qatoriga kiritiladi. Miflarda muayyan bir qisqa syujet bayon etiladi, mo‘jizaviy voqelik tafsili ustunlik qiladi.[Jo‘rayeva D., Otajonova M., Nurullayeva S. mif va badiiy ijod. Fan Ziyosi. 2024. 10-bet]. “Mif” so‘zi grekcha “mythos” – so‘z, rivoyat so‘zidan olingan. L.M.Zemlyanovaning qayd qilishicha, amerikalik olimlar tabiiy hodisalar mohiyatini tushuntirish maqsadida aytilgan hikoyalarni mif, muayyan insonlar hayotida yoki aniq makonda ro‘y bergan voqea-hodisalarning bayonidan iborat bo‘lgan nasriy asarlarni esa afsona deb atashgan. Aytuvchi va tinglovchining hikoya qilinayotgan voqeaga munosabati og‘zaki nasriy asarlarning janr mansubiyatini belgilashda muhim o‘rin tutadi. Mif naqliy-ma’rifiy nasr janrlaridan biridir.

Mifologik frazemalar paydo bo‘lishida, asosan, uch manba muhim o‘rin tutadi: qadimgi yunon va rim mifologiyasi, Sharq mifologiyasi va xalqning o‘z ertak-afsonalari. Yunon-rim mifologiyasi ko‘pincha, jahon tillariga tarjima yo‘li bilan, kalka tarzida kirib kelgan. Masalan, Axilles tovoni (insonning eng zaif joyi), Troya oti (yashirin dushmanlik makr), Pandora qutisi (kutilmagan va baxtsizliklar va muammolar manbai) va hokazo. Sharq mifologiyasida esa o‘zbek xalqining qadimiy tasavvurlari yaqqol seziladi:

Anqoning urug‘i (ba’zida “Anqoning tuxumi”) iborasi o‘zbek tilidagi eng faol va tasviriy kuchi yuqori bo‘lgan frazemalardan biridir. Ushbu ibora tilimizda “mutlaqo mavjud bo‘lmagan, toppish imkonsiz, nihoyatda taqchil va kamyob” narsa yoki shaxslarga nisbatan qo‘llaniladi.

Iboraning o‘zagini tashkil qiluvchi Anqo (arabcha: uzun bo‘yinli) – Qadimgi Sharq xalqlari mifologiyasi, islomiy rivoyatlar va tasavvuf adabiyotida tilga olingan afsonaviy, muqaddas qushdir. Islomiy manbalarga ko‘ra, Anqo dastlab Alloh tomonidan barcha a’zolari mukammal va g‘oyat go‘zal qilib yaratilgan. Bu qush keyinchalik odamlarga Zarar yetkaza boshlagani yoki uning ulkanligi tufayli yer yuzidan g‘oyib qilingan.mifologiyaga ko‘ra, o‘zi g‘oyib bo‘lgan yoki mavjud bo‘lmagan mavjudotning urug‘i yoki tuxumi ham tabiatda mavjud bo‘lmaydi. Insoniyat real hayotda hech qachon Anqo qushini ko‘rmagani kabi uning ko‘payishi, nasli yoki zoti haqida ham biror moddiy dalilga ega emas. Shundan kelib chiqib, xalq tilida topilishi imkonsiz bo‘lgan har qanday narsa uning nasliga –“urug‘i” ga o‘xshatilgan.

Humo qushi boshiga qo‘nmoq iborasining ildizlari islomgacha bo‘lgan davrlarga, qadimiy zardushtiylik e’tiqodlariga va Sharq xalqlari mifologiyasiga borib taqaladi. Bu shunchaki ertaknamo obraz emas, balki qadimiy davlatchilik an’analari va diniy-falsafiy qarashlar bilan bog‘liq mukammal bir timsoldir. Sharq xalqlari rivoyatlarida bayon etilishicha, qadimda hukmdor to‘satdan vafot etsa va taxtga qonuniy merosxo‘r topilmasa, mamlakatda parokandalik kelib chiqmasligi uchun o‘ziga xos demokratik usuldan foydalanilgan. Butun shahar ahli bosh maydonga to‘plangan va shundan so‘ng Humo qushi ko‘kka uchirib yuborilgan.

Qush osmunda aylanib yurib, maydondagi kimning boshiga yoki yelkasiga qo‘nsa, o‘sha inson ijtimoiy kelib chiqishidan qat’iy nazar yangi podsho deb e’lon qilingan. Aynan shu sababli xalq orasida to‘satdan ulkan omadga yoki martabaga erishgan kishilarga nisbatan “boshiga humo qushi qo‘ndi” iborasi muhrlanib qolgan.

Mifologik frazemalarning asosiy xususiyati shundaki, larning ma’nosi tarkibidagi so‘zlar ma’nosining jamlanmasidan kelib chiqmaydi. Masalan, “Gordiy tuguni” birikmasini bilmagan kishi qanaqadir tugun deb tushunadi. Ma’no mif bilan tanish bo‘lgandagina ochiladi. Tilga kirib kelgan frazemalar bir joyda qotib qolmaydi. Ular vaqt o‘tishi bilan tilning ichki qonuniyatlariga moslashadi. Ba’zan mif unutilsa ham, frazema yashashda davom etadi, chunki uning ma’nosi nutqda mustahkamlanib ulgurgan. Misol uchun, ko‘pchilik “Humo qushi” birikmasini qadimiy rivoyat bilan bog‘lamagan holda ham baxt ramzi sifatida qo‘llaniladi. Mifologik frazemalarda yana bir muhim jihat – ularning ekspressiv-emotsional bo‘yog‘i. Ular nutqqa obrazlilik, ta’sirchanlik va ixchamlik baxsh etadi.

Xulosa qilib aytganda, mif asosida shakllangan frazemalar tilning boy xazinasi bo‘lib, ularda xalqning qadimiy tasavvurlari, axloqiy qarashlari va madaniy qadriyatlari mujassam bo‘ladi. Ular ma’no jihatdan motivlangan, obrazli va ekspressiv bo‘lib, metofara yo‘li bilan jamlangan ma’no kasb etadi. Bugungi globallashuv sharoitida mifologik frazemalar xalqlar o‘rtasidagi madaniy muloqotning ham ko‘prigidir. Har bir tildagi milliy farqlar esa xalqning o‘ziga xos dunyoqarashini ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR

1. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1978. 407 b.
2. Mamatov A. O‘zbek tili frazeologiyasi shakllanish masalalari. – Toshkent, 1999. – 30 b.
3. Jo‘rayeva D., Otajonova M., Nurullayeva S. Mif va badiiy ijod. Fan ziyosi. 2024. 10-b.
4. Кунин А. В. Фразеология современного английского языка. – Москва: Международные отношенияб 1996.